«Tasdiqlayman»
"O'zmilliybank" AJ
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Bosh boshqarmasi To'rtko'l BXM
boshqaruvchisi
_____A.Madraimov

«21» may 2026 y

**"O'zmilliybank"AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasida To'rtko'l BXM o'tkazilgan davra suhbat yig'ilish**

**B A Y O N N O M A S I №3**

**To'rtko'l tuman** **«21» may 2025 y**

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi To'rtko'l BXM boshqaruvchisi A.Madraimov.

Ishtirok etdilar: "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaev.

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi To'rtko'l BXM xodimlari qatnashdilar. (21)ta

**KUN TARTIBIDAGI MASALA:**

- "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi va Nukus amaliyot BXO xodimlari uchun 2024 yil 5 iyun O'RQ-931 sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida;
- O'zbekistan Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy qilish maqsad va vazifalari;

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi To'rtko'l BXM boshqaruvchisi A.Madraimov yig'ilishni ochdi va olib bordi.

**manfaatlar to'qnashuvi** — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat ekanligi aytib o'tildi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladigan O'zR Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan normalar haqida tushintirishlar berib o'tdi.

Yig'ilish qatnashchilariga muhokama qilinayotgan O'zbekiston Respublikasidagi mavjud barcha qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini muhofaza etish, huquq-tartibotni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurashdek muhim vazifalar yuklanganligini ta'kidlab o'tti.

So'z Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi A.Saparbaevga berildi:

O‘zbekistonning yangi siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini yuqori darajaga ko‘tarish, zamonaviy samarali davlat borqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko‘rinishlariga qat’iy murosasizlik madaniyatini shakllantirishda yuksak g‘oyalarga tayanmoqda.

Avvalo, ushbu isloxotlarning tub zamirida Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyiliga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo‘lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Shu urinda isloxotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta’minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida ijobiy yutuklarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni kursatmoqdaki, korrupsiya kurinishlarining oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga asosiy e’tibor qaratilgan va bu o‘z samarasini berganini amalda kurib turibmiz.

Xalqaro tajribada bu kabi profilaktik vositalardan biri korrupsiyaga qarshi muvofiqlik "komplaens-nazorat" tizimi deb nom oladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, uni oldini olish, davlat va jamiyatning barcha soxalarida korrupsiyaviy omillarga chek quyishga qaratilgan isloxotlar jadal olib borilayotgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qoshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonga asosan barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bolgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy (compliance control) nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, banklar va hususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta’minlovchi, korrupsiya xavf xatarlari va manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek quyish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o‘zida mujassam etgan samarali tizimdir.

Xalqaro iqtisodiyotga korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi oqibatida yetkazilayotgan zararning tobora ortib borayotgani natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasini yanada keng tadbik etilishi, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat tizimi** asosiy maqsadi tashkilotda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida (bundan buyon matnda tashkilot tizimi deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, hususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va

madaniyatini oshirish, tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

**QAROR QILADI:**

- "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi To'rtko'l BXM boshqaruvchisi A.Madraimov va Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaevlarning ma'ruzalari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
- Korrupsiyaga qanday oqibatlarga olib kelishi haqida barcha xodimlarni og'ohlantirish.

**Yig'ilish kotibi:** **S.Yangibayeva**

**“O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi “To‘rtko‘l” Bank xizmatlar markazining 2026 yil 21 maydagi №3 sonli yig‘ilish seminar bayoni bilan tanishtirildi:**

| № | Familiya, ismi va otasining ismi | Tanishganligi haqida imzo |
|---|---|---|
| 1. | Жумабаев Дафикжон Нуриддинович | |
| 2. | Шадиев Рустам Атабекович | |
| 3. | Садуллаев Фозилжон Рустам ўғли | |
| 4. | Искаров Исан Еламанович | |
| 5. | Кубанов Эльр Позумбетович | |
| 6. | Дюсембуриев Дауылбек | |
| 7. | Розумбетова Фарруза | |
| 8. | Бегимов Исаур | |
| 9. | Абдуллаев Жалид | |
| 10. | Ачилова Дилбар | |
| 11. | Умирзакова Зилолой | |
| 12. | Абдуллаева Нагдибек | |
| 13. | Курбанов Сарварбек | |
| 14. | Ибрагимов Ильгам | |
| 15. | Розмаметов Рауфбек | |
| 16. | Айтаев Зайнал Абдуллаевич | |
| 17. | Аупаддинова Рохаджон | |
| 18. | Алманазарова Динара | |
| 19. | Собурова Гулнара | |
| 20. | Ражабаров Жалгас | |
| 21. | Нурмаметов Азамат | |
| 22. | | |
| 23. | | |
| 24. | | |
| 25. | | |
| 26. | | |
| 27. | | |
| 28. | | |
| 29. | | |
| 30. | | |
| 31. | | |
| 32. | | |
| 33. | | |
| 34. | | |
| 35. | | |
| 36. | | |
| 37. | | |
| 38. | | |
| 39. | | |
| 40. | | |

**O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi To‘rtko‘l BXM bilan №3 21.05.2026 yilgi o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi.**

**O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi  Bosh boshqarmasi To‘rtko‘l BXM va bilan №3 21.05.2026 yilgi o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi.**